

Internet Narsalar (IoT) Ning Raqamli Iqtisodiyotdagi Yangi Imkoniyatlari Va Xatarlari

Normurodov Jamshid Baxshibek o'g'li¹, Mardonov Diyorbek Bobir o'g'li²

Annotatsiya: Ushbu maqolada Internet narsalar (IoT) texnologiyasining raqamli iqtisodiyotdagi o'rni va uning ta'siri tahlil qilinadi. Bugungi kunda IoT qurilmalari sanoat, transport, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va real vaqt rejimida ma'lumotlar almashinuvi imkoniyatlarini yaratmoqda. IoT texnologiyalari yordamida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, aqlli shaharlar va aqlli uylar infratuzilmalari shakllanmoqda, bu esa iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarni rag'batlantirmoqda. Shu bilan birga, IoT tizimlarining tez sur'atlarda rivojlanishi ma'lumotlar xavfsizligi, kiberhujumlar, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi kabi xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sanoat va moliya tizimlarida IoT qurilmalarining himoyasizligi iqtisodiy barqarorlik uchun tahdid hisoblanadi. Maqolada IoTning yangi imkoniyatlari va xatarlarini baholash hamda ularni boshqarish usullari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Internet narsalar (IoT), avtomatlashtirish, raqamli infratuzilma, aqlli shaharlar va uylar, kiberxavfsizlik va raqamli iqtisodiyot

Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida Internet narsalar (IoT) texnologiyasi muhim rol o'ynab, turli sohalarida jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish imkonini bermoqda. IoT qurilmalari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, transport, sog'liqni saqlash va xizmat ko'rsatish tizimlarida ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish, uzatish va tahlil qilishni ta'minlaydi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash imkonini yaratmoqda. Masalan, aqlli shaharlar va aqlli uy tizimlari orqali energiya tejamkorligini ta'minlash, transport harakatini boshqarish va xavfsizlikni oshirish mumkin.

Bundan tashqari, IoT texnologiyalari raqamli infratuzilmaning rivojlanishiga, yangi ish o'rinlari va innovatsion biznes-modellarning shakllanishiga sabab bo'layotir. U orqali korxonalar o'z faoliyatini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etib, bozordagi raqobatbardoshligini oshirish imkoniga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, bu texnologiyaning tezkor rivojlanishi ma'lumotlar xavfsizligi, kiberxavf va shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi kabi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, moliya, sog'liqni saqlash va sanoat tizimlarida IoT qurilmalarining himoyasizligi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka xavf tug'dirishi mumkin.

Umuman olganda, Internet narsalar texnologiyasi raqamli iqtisodiyotning uzviy qismi bo'lib, u mamlakatlar iqtisodiyoti va infratuzilmasining raqamli asosda rivojlanishiga, innovatsion yechimlar va xizmatlarning joriy qilinishiga katta hissa qo'shmoqda. Shu sababli, IoT texnologiyalarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va undan kelib chiqadigan xatarlarni boshqarish masalalari dolzarb hisoblanadi.

IoT qurilmalari sanoat, transport, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida jarayonlarni raqamlashtirish orqali ko'plab qulayliklar yaratmoqda. Sanoat sohasida ishlab chiqarish liniyalari va uskunalarga o'rnatilgan IoT sensorlari yordamida uskunalarining holati, ish samaradorligi va energiya sarfi doimiy nazorat qilinadi. Bu uskunalarining ishdan chiqishini oldindan aniqlash, nosozliklarni bartaraf etish va ishlab chiqarish jarayonini to'xtatmasdan boshqarish imkonini beradi.

¹ Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi

² Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti 3-bosqich talabasi



Transport sohasida esa IoT qurilmalari transport vositalari harakatini nazorat qilish, marshrutlarni optimallashtirish va yoqilg'i sarfini kamaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimida tibbiy IoT qurilmalari bemorlarning salomatligini doimiy kuzatib borish, sog'liq haqidagi ma'lumotlarni shifokorlarga real vaqt rejimida yetkazish va tezkor tibbiy yordam ko'rsatish imkonini bermoqda. Qishloq xo'jaligida esa yer namligi, harorat, havo sifati kabi agrotexnik ma'lumotlarni yig'ish va ularga asoslangan holda suv ta'minoti va o'g'itlash jarayonlarini avtomatik boshqarish imkoniyati yaratilgan. Xizmat ko'rsatish sohasida esa IoT texnologiyasi mijozlarga moslashtirilgan xizmatlarni taqdim etish, buyurtmalarni onlayn boshqarish va xizmat sifati monitoringini amalga oshirish imkonini bermoqda. Umuman olganda, IoT qurilmalari turli sohalarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini yanada samarali, tejamkor va tezkor qilishga xizmat qilmoqda.

IoT texnologiyalari yordamida ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, inson omiliga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish va resurslardan yanada tejamkor foydalanish imkonini bermoqda. Bu esa korxonalarga mahsulot tannarxini pasaytirish, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va bozordagi raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini beradi. Natijada, iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashadi va yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Shuningdek, aqlli shaharlar va aqlli uylar infratuzilmalari shakllanishi aholining turmush sifatini yaxshilash, energiya va kommunal resurslardan samarali foydalanish, transport tizimini optimallashtirish va ekologik muammolarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aqlli shahar infratuzilmalari orqali kommunal xizmatlar, jamoat xavfsizligi, transport va sog'liqni saqlash tizimlari o'zaro bog'lanib, real vaqt rejimida boshqariladi. Bu esa shahar infratuzilmasining samarali ishlashini ta'minlab, iqtisodiy barqarorlik va yashash sifati oshishiga xizmat qiladi.

Bunday texnologik yechimlar innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi, yangi texnologiyalar va xizmat turlarini yaratish uchun sharoit yaratadi. Shu orqali ilmiy-texnik salohiyat rivojlanib, raqamli infratuzilma kengayadi, mamlakatning global raqamli iqtisodiyotdagi o'rni mustahkamlanadi. Demak, IoT texnologiyalari iqtisodiy o'sish va innovatsion taraqqiyotning muhim omili sifatida tobora keng ahamiyat kasb etmoqda.

IoT tizimlarining tez sur'atlarda rivojlanishi, ularning kundalik hayotimizga tobora chuqurroq kirib borishi bilan birga, bir qator xavfsizlik muammolarini ham keltirib chiqarmoqda. Ko'plab IoT qurilmalari ishlab chiqaruvchilar tomonidan xavfsizlikni ta'minlashga yetarlicha e'tibor berilmaydi, bu esa ularning zaifligini oshiradi. Xakerlar zaif himoyalangan qurilmalarni o'z botnetlariga aylantirib, xizmatni rad etish (DDoS) hujumlarini amalga oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, IoT qurilmalari orqali yig'ilayotgan shaxsiy ma'lumotlarning himoyasizligi, ularning o'g'irlanishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi xavfini tug'diradi, bu esa shaxsiy hayotga tahdid soladi. Shuningdek, IoT qurilmalari va tizimlarining ko'pligi, ularning xavfsizligini ta'minlashda murakkabliklar yaratadi, chunki har bir qurilma uchun alohida xavfsizlik choralari ko'rilishi zarur. Shu sababli, IoT tizimlarining xavfsizligini ta'minlash uchun ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilar o'rtasida hamkorlikda qat'iy xavfsizlik choralari joriy etish, muntazam yangilanishlarni amalga oshirish va ma'lumotlarni shifrlash kabi usullarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.³

1-jadval Internet narsalar(IoT) texnologiyalarining raqamli iqtisodiyotga ta'sirlari

t/r	Imkoniyatlar	Xavf-xatarlar
1	Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirish	IoT qurilmalari orqali ma'lumotlarning buzilishi yoki o'g'irlanishi
2	Aqlli shaharlar va transport tizimlarini yaratish	Qurilmalarning buzilishi yoki nosozligi xavfi
3	Tibbiyotda masofaviy monitoring va sog'liqni kuzatish imkoniyati	Maxfiy tibbiy ma'lumotlarning tarqalish

³ <https://uz.itpedia.nl/2019/02/01/het-internet-of-things-en-6-grote-security-problemen/>



		ehtimoli
4	Onlayn savdo va logistika tizimlarini optimallashtirish	Tarmoq va serverlarga kiberhujumlar
5	Yangi ish o‘rinlari va xizmat turlarining paydo bo‘lishi	IoT texnologiyalariga haddan tashqari bog‘lanib qolish

Jadvalda Internet narsalar (IoT) texnologiyalarining raqamli iqtisodiyotga kirib kelishi bilan yuzaga kelgan asosiy imkoniyatlar va xavf-xatarlar tahlil qilingan. IoT qurilmalari yordamida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, aqlli shaharlar va zamonaviy transport tizimlari barpo etilmoqda, tibbiyotda esa masofaviy monitoring va sog‘liqni nazorat qilish imkoniyatlari paydo bo‘lmoqda. Bundan tashqari, onlayn savdo va logistika tizimlari yanada optimallashtirilmoqda hamda yangi ish o‘rinlari va xizmat turlari vujudga kelmoqda. Shu bilan birga, IoT texnologiyalarining rivojlanishi ma‘lumotlar xavfsizligi, kiberhujumlar, texnik nosozliklar, maxfiy ma‘lumotlarning tarqalishi kabi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu esa tizimlarni yanada ishonchli va xavfsiz qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Jadval aynan mana shu imkoniyat va xavflarni solishtirishga yordam beradi.

IoT qurilmalarining sanoat va moliya tizimlarida himoyasizligi iqtisodiy barqarorlik uchun tahdid hisoblanadi, chunki bu tizimlar muhim ishlab chiqarish va moliyaviy jarayonlarni real vaqt rejimida boshqarish uchun IoT texnologiyalariga tayanadi. Agar bu qurilmalar xavfsizligi zaif bo‘lsa, xakerlar ularni manipulyatsiya qilib, tizimlarni ishdan chiqarishi yoki noto‘g‘ri ishlashiga olib kelishi mumkin. Masalan, sanoat ishlab chiqarish liniyasidagi IoT qurilmasi noto‘g‘ri ishlasa, bu mahsulot sifatiga ta‘sir qilishi yoki ishlab chiqarish jarayonini to‘xtatishi mumkin. Moliya tizimlarida esa IoT qurilmalari orqali o‘g‘irlangan ma‘lumotlar moliyaviy firibgarlikka olib kelishi yoki tizimlarning ishonchliligini pasaytirishi mumkin. Bunday holatlar iqtisodiy barqarorlikni buzishi, investorlarning ishonchini yo‘qotishi va iqtisodiy inqirozga olib kelishi mumkin.

Internet narsalari (IoT) texnologiyalari raqamli iqtisodiyotda inqilobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda, ammo ular bilan birga yangi imkoniyatlar va xavf-xatarlar ham yuzaga kelmoqda. IoT qurilmalari yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, aqlli shaharlar va uylar infratuzilmasini yaratish, real vaqt rejimida ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish imkoniyatlari paydo bo‘lmoqda. Bu esa samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va yangi biznes modellarini yaratish imkonini beradi. Biroq, IoT tizimlarining tez sur‘atlarda rivojlanishi bilan birga, ular bilan bog‘liq xavf-xatarlar ham ortmoqda. IoT qurilmalari ko‘pincha zaif xavfsizlik choralari bilan ishlab chiqariladi, bu esa ularni kiberhujumlarga nisbatan himoyasiz qiladi. Shuningdek, IoT tizimlarida yig‘ilayotgan katta hajmdagi ma‘lumotlar shaxsiy hayotga tahdid solishi mumkin. Bu xavf-xatarlardan samarali himoya qilish uchun IoT tizimlarining xavfsizligini ta‘minlash zarur. Bu esa ishlab chiqaruvchilar, foydalanuvchilar va davlat organlari o‘rtasida hamkorlikni talab etadi. IoT qurilmalarining xavfsizligini ta‘minlash uchun xavfsizlik protokollarini joriy etish, ma‘lumotlarni shifrlash, muntazam tizim yangilanishlarini amalga oshirish va foydalanuvchi autentifikatsiyasini kuchaytirish kabi chora-tadbirlar qo‘llanilishi lozim.

2-jadval Internet narsalar(IoT)ning raqamli iqtisodiyotdagi muhim o‘rinlari

t/r	Qulayliklar	Misol
1	Sanoat va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish	Siemens kompaniyasi ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqtda kuzatib, nosozliklarni avtomatik aniqlaydigan aqlli tizimi
2	Aqlli shaharlar va infratuzilma boshqaruvi	Singapurdagi aqlli shahar loyihasi, unda yo‘l tirbandliklari, transport oqimi va jamoat xavfsizligi IoT sensorlari orqali boshqariladi
3	Sog‘liqni saqlash sohasida masofaviy monitoring	itbit yoki Apple Watch kabi aqlli soatlar yurak urish tezligi, qon bosimi va uyqu sifatini o‘lchab, mobil ilova orqali ma‘lumotlarni taqdim etadi
4	Qishloq xo‘jaligi	Aqlli sug‘orish tizimlari (masalan, Netafim) suv sarfini optimal



	monitoringi va avtomatlashtirish	darajada boshqaradi
5	Uy va bino xavfsizligi	Ring, Xiaomi yoki Arlo aqlli kameralar harakatni aniqlaydi va foydalanuvchiga bildirishnoma yuboradi.
6	Energiya samaradorligi va aqlli elektr tarmoqlari (Smart Grid)	Aqlli elektr hisoblagichlar (smart meters) energiya sarfini real vaqtda ko'rsatib, foydalanuvchiga energiyani tejash tavsiyalarini beradi.

Internet narsalari (IoT) raqamli iqtisodiyotda juda muhim o'rin tutadi, chunki u ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va nazorat qilishni osonlashtiradi. IoT texnologiyalari yordamida zavod va korxonalaridagi uskunalar masofadan boshqariladi, ularning holati va ishlash samaradorligi doimiy monitoring qilinadi. Bundan tashqari, logistika va transport tizimlarida yuklarning joylashuvi va holatini kuzatish, yo'nalishlarni optimallashtirish va yetkazib berish muddatlarini qisqartirish imkoniyati yaratiladi. IoT qishloq xo'jaligida ham qo'llanilib, dala va issiqxonalardagi tuproq, havo va suv holatini tahlil qilib, hosildorlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Uy va bino xavfsizligini ta'minlashda esa IoT qurilmalari yordamida binolarning holati doimiy kuzatilib, masofaviy boshqarish orqali xavfsizlik choralari kuchaytiriladi. Energiya samaradorligini oshirish va elektr tarmoqlarini boshqarishda ham IoT texnologiyalari iste'mol ma'lumotlarini real vaqtda kuzatib, energiya isrofini kamaytiradi hamda taqsimotni muvozanatlashga xizmat qiladi. Sog'liqni saqlash sohasida esa IoT qurilmalari bemorlarning sog'lig'ini masofadan monitoring qilib, ularning holatini doimiy kuzatib borish imkoniyatini yaratadi, bu esa erta ogohlantirish va tezkor tibbiy yordam ko'rsatishni osonlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, Internet narsalar (IoT) texnologiyalari raqamli iqtisodiyotda muhim o'rin egallab, turli sohalarida samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va real vaqt rejimida ma'lumot almashinuvi imkoniyatlarini taqdim etmoqda. IoT qurilmalari yordamida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilib, aqlli shaharlar va uylar infratuzilmalari shakllanmoqda, bu esa iqtisodiy o'sish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirmoqda. Shu bilan birga, IoT tizimlarining tez sur'atlarda rivojlanishi ma'lumotlar xavfsizligi, kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sanoat va moliya sohalarida IoT qurilmalarining himoyasizligi iqtisodiy barqarorlik uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Shuning uchun IoT texnologiyalarining imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish bilan birga, ularning xavf-xatarlarini boshqarish, zamonaviy himoya mexanizmlarini joriy etish va normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloev, A. J. (2023). THE ROLE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN MARKETING.
2. Abdullayeva, H. N., & Sardor, M. (2024). RAQAMLASHTIRISH-MAMLAKAT TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(27), 113-121.
3. Abdullayeva, H. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATSION MARKETINGDAN FOYDALANISH. *ЎЗБЕК ИСТИҚОҚИЙ НАТИЖАЛАРИ* (buxdu. uz), 49(49).
4. Axrorovna, B. M. (2022). The Importance of Digitizing the Tax System. *European Journal Of Business Startups And Open Society*, 2(11), 1-5.
5. Giyazova, N.B. (2024). INCREASING THE EFFICIENCY OF WASTE RECYCLING IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 455-461.
6. Giyazova, N.B., & Sh.B.S. (2024). ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORA-TADBIRLAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 482-489.



7. Shukhratovna, U. M., & Bayazovna, G. N. (2025). FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MOBILE INTERNET. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(49), 250-256.
8. Таирова, М. М., & Зойитов, Д. (2024). ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 371-376.
9. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. *Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы*, (1), 115-118.
10. Hakimovna, U. M., & Muhammedrisaevna, T. M. S. (2022). The role of banking and accounting in the development of small business and entrepreneurship. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11, 136-143.
11. Sayfullayeva, M. (2023). Establishment Of Agritourism Clusters In Uzbekistan Based On The Principles Of Sustainable Tourism. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 35(35).
12. Raxmatullayeva, F. M. (2024). MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. *Indexing*, 1(1).
13. Raxmatullayeva, F. M., & Shaxzod, J. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RESURSLAR ISTE'MOLIGA TA'SIRI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 496-502.
14. Mubinovna, R. F. (2025). RAQAMLI IQTISODIYOTDA PLATFORMALAR AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 220-225.
15. Rasul o'g'li, K. U., & Bayazovna, G. N. (2025). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 4(37), 342-348.
16. Aliyor o'g'li, X. S., & Bayazovna, G. N. (2025). KIBERXAVFSIZLIK–RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(31), 113-117.
17. Shuxratovich, T. B., & Bayazovna, G. N. (2025). INSON KAPITALINING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI O'RN. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024*, 4(38), 187-191.
18. Shokirjon o'g'li, J. S., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA EKOLOGIK BARQARORLIK: BLOKCHeyNning YASHIL IQTISODIYOTDAGI ROLI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(50), 418-425.
19. Ramz o'g'li, S. D., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI VALYUTA VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(31), 130-135.
20. Rustam o'g'li, R. J., & Bayazovna, G. N. (2025). MOBIL TO'LOVLAR VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(30), 193-197.
21. Giyazova, N. B., & Azimxon ogli, Q. S. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(29), 159-163.
22. Giyazova, N. B., & Dildora, I. (2024). YASHIL IQTISODIYOT VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(29), 213-217.



23. Bayazovna, G. N., & Ayubovich, X. A. L. (2024). THE CONCEPT OF FINANCE AND THE STAGES OF ITS FORMATION. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (7), 673-679.
24. Bayazovna, G. N. (2024). GEOMARKETINGNING RESTORAN BIZNESIGA TADBIQ ETILISHINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 484-490.
25. Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 27, 27.
26. <https://uz.itpedia.nl/2019/02/01/het-internet-of-things-en-6-grote-security-problemen/>
27. Xasanova, S. (2023). Analysis of the Work Carried Out in Uzbekistan and the World to Prevent Tax Violations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 47-50.
28. Islamovna, X. S. (2024). OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORI GEOGRAFIYASINI KENGAYTIRISHDA AXBOROT TIZIMLARIDAN VA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 493-500.
29. Islamovna, X. S. (2024). AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 390-396.
30. Islamovna, X. S., & Karimbek, K. (2024). IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY MENEJER BOSHQARUVI. *Gospodarka i Innowacje*, 46, 361-365.
31. Наврўзода, З. Б., & Хасанова, С. И. (2022). АҲОЛИНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БАНДЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ–ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 769-773.
32. Jamshedovna Q. H. GREEN ECONOMY AS A FACTOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 785-794.
33. Otabek o'g'li O. M., Jamshedovna Q. H. RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOYDALANUVCHI MA'LUMOTLARINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR //INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 38. – С. 167-174.
34. Jamshedovna Q. H., Lutfullayevna X. L. BUSINESS MANAGEMENT: WAYS TO ACHIEVE DOMINANCE IN THE MARKET //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – Т. 6. – №. 49. – С. 247-249.
35. Khurramov O. K., Kasimova H. J. The main advantages of internet marketing and differences from traditional marketing //Мировая наука. – 2019. – №. 4 (25). – С. 65-68.
36. Jamshedovna Q. H., Askarovich S. M. Effective Development of the Economy on the Basis of" Green Economy". – 2023.

